

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

AHOLINI AYRIM TURDAGI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BILAN TA‘MINLASHGA DOIR CHORALAR TO‘G‘RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 23-aprelda qabul qilingan
Senat tomonidan 2021-yil 24-aprelda ma’qullangan

Mazkur Qonun global koronavirus pandemiyasi davom etayotgan davrda respublika aholisining ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini kafolatli ta’minlash hamda narx-navolar asossiz o‘shib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida qabul qilinmoqda.

1-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda qabul qilingan O‘RQ-599-sonli Qonuni bilan yangi tahrirda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, 12-songa 1-ilova; 2020-yil, № 3, 198-modda, № 10, 593-modda, № 11, 652-modda, № 12, 690, 691-moddalar; 2021-yil, № 1, 6-modda) **483-moddasi** quyidagi mazmundagi uchinchi qism bilan to‘ldirilsin:

“2021-yil 1-maydan 31-dekabr qadar bo‘lgan davrda quyidagilar qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi:

O‘zbekiston Respublikasi hududiga o‘simlik yog‘i, kungaboqar va zig‘ir urug‘i, shuningdek soya danagini olib kirish;

o‘simlik yog‘ini (paxta yog‘idan tashqari) ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma”.

2-modda. 2021-yil 1-maydan 31-dekabr qadar bo‘lgan davrda:

ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan mazkur Qonunning **ilovasiga** muvofiq eksport bojxona bojlari kiritiladi;

tadbirkorlik subyektlariga o‘zlari tomonidan import qilingan kungaboqar yog‘i va kungaboqar urug‘larini qayta ishlash natijasida olingan o‘simlik yog‘ining (TIF TN bo‘yicha kodi 1512 11 — 1512 19) 50 foizdan oshmagan qismini eksport qilishga ruxsat beriladi.

3-modda. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi tadbirkorlik subyektlari tomonidan import qilingan kungaboqar yog‘i va kungaboqar urug‘larini qayta ishlash natijasida olingan o‘simlik yog‘i hajmiga nisbatan eksport shartnomalari doirasida amalga oshirilgan eksport 50 foizdan oshishiga yo‘l qo‘yilmasligi bo‘yicha nazorat o‘rnatilsin.

4-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin;

ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

5-modda. Ushbu Qonun rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2021-yil 29-aprel,
O‘RQ-689-son

O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashga doir choralar to‘g‘risida”gi 2021-yil 29-apreldagi O‘RQ-689-sonli Qonuniga

ILOVA

Ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan eksport bojxona bojlari

T/r	Oziq-ovqat mahsulotining qisqacha nomi	Mahsulotning TIF TN kodlari	Eksport bojxona boji stavkalari* tovarning bojxona qiymatidan foiz
-----	--	-----------------------------	--

			yoki 1 kg uchun AQSh dollari
1.	Kungaboqar va paxta urug‘lari	1206; 1207 21 — 1207 29 (ekish uchun mo‘ljallangan paxta urug‘i bundan mustasno)	30 %, biroq 1 kg uchun 0,2 AQSh dollaridan kam bo‘lmagan miqdorda
2.	Kungaboqar yog‘i	1512 11 — 1512 19	20 %, biroq 1 kg uchun 0,2 AQSh dollaridan kam bo‘lmagan miqdorda
3.	Paxta yog‘i	1512 21 — 1512 29	50 %, biroq 1 kg uchun 0,5 AQSh dollaridan kam bo‘lmagan miqdorda

** Ushbu ilova bilan eksport bojxona boji stavkalari mazkur tovarlar uchun “bojxona hududida qayta ishlash” bojxona rejimiga nisbatan tatbiq etilmaydi.*

(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2021-y., 03/21/689/0395-son)

ЗАКОН РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

О МЕРАХ ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ НАСЕЛЕНИЯ ОТДЕЛЬНЫМИ ВИДАМИ ПРОДОВОЛЬСТВЕННЫХ ТОВАРОВ

Принят Законодательной палатой 23 апреля 2021 года

Одобен Сенатом 24 апреля 2021 года

Настоящий Закон принимается в целях гарантированного обеспечения потребностей населения республики в отдельных видах продовольственных товаров и предотвращения необоснованного повышения цен в период продолжающейся глобальной коронавирусной пандемии.

Статья 1. **Статья 483** Налогового кодекса Республики Узбекистан, утвержденного в новой редакции Законом Республики Узбекистан от 30 декабря 2019 года № ЗРУ-599 (Ведомости палат Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 2019 г., приложение 1 к № 12, 2020 г., № 3, ст. 198, № 10 ст. 593, № 11, ст. 652, № 12, ст.ст. 690, 691; 2021 г., № 1, ст.6), дополнить частью третьей следующего содержания:

«Освобождаются с 1 мая по 31 декабря 2021 года от налога на добавленную стоимость:

ввоз на территорию Республики Узбекистан растительного масла, семян подсолнечника и льна, а также соевых бобов;

оборот по производству и (или) реализации растительного масла (кроме хлопкового масла)».

Статья 2. В период с 1 мая по 31 декабря 2021 года:

вводятся экспортные таможенные пошлины в отношении отдельных видов продовольственных товаров согласно **приложению** к настоящему Закону;

субъектам предпринимательства разрешается экспортировать не более 50 процентов произведенного растительного масла (коды ТН ВЭД 1512 11 — 1512 19), полученного в результате переработки импортированных данными субъектами подсолнечного масла и семян подсолнечника.

Статья 3. Государственному таможенному комитету Республики Узбекистан установить контроль по недопущению экспорта сверх 50 процентов, осуществляемого в рамках экспортных контрактов от объема растительного масла, полученного в результате переработки импортированных субъектами предпринимательства подсолнечного масла и семян подсолнечника.

Статья 4. Кабинету Министров Республики Узбекистан:

привести решения правительства в соответствии с настоящим Законом;

обеспечить пересмотр и отмену органами государственного управления их нормативно-правовых актов, противоречащих настоящему Закону;

обеспечить исполнение, доведение до исполнителей и разъяснение среди населения сути и значения настоящего Закона.

Статья 5. Настоящий Закон вступает в силу со дня его официального опубликования.

Президент Республики Узбекистан Ш. МИРЗИЁЕВ

г. Ташкент,
29 апреля 2021 г.,
№ ЗРУ-689

ПРИЛОЖЕНИЕ

к Закону Республики Узбекистан «О мерах по обеспечению населения отдельными видами продовольственных товаров» от 29 апреля 2021 года № ЗРУ-689

Экспортные таможенные пошлины в отношении отдельных видов продовольственных товаров

№	Краткое наименование продовольственного товара	Коды ТН ВЭД товара	Ставки экспортных таможенных пошлин*, в процентах от таможенной стоимости товара или в долларах США за 1 кг
1.	Подсолнечные и хлопковые семена	1206; 1207 21 — 1207 29 (за исключением хлопковых семян, предназначенных для посева)	30 %, но не менее 0,2 доллара США за 1 кг
2.	Подсолнечное масло	1512 11 — 1512 19	20 %, но не менее 0,2 доллара США за 1 кг
3.	Хлопковое масло	1512 21 — 1512 29	50 %, но не менее 0,5 доллара США за 1 кг

** Ставки экспортных таможенных пошлин не распространяются в отношении таможенного режима «переработка на таможенной территории».*

(Национальная база данных законодательства, 29.04.2021 г., № 03/21/689/0395)